

Oliy ta’lim bakalavriat yo‘nalishlarining o‘quv rejalarini va o‘quv dasturlarini umumiyligi o‘rtasi va o‘rta maxsus, professional ta’lim bilan uzviylik va uzluksizligi ta’minlangan holda, oliy ta’limning davlat ta’lim standartlari, bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarining malaka talablari asosida ishlab chiqiladi. O‘quv rejalar tarkibiga o‘zlashtirilishi majburiy bo‘lgan fanlar (majburiy fanlar) bloki va tanlab o‘zlashtiriladigan fanlar (tanlov fanlari) bloki kiradi.

Ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari hamda tegishli sohalarning o‘ziga xos xususiyatlari muvofiq o‘quv rejalaridagi bloklar tarkibi o‘zgartirilishi mumkin.

Bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari o‘quv rejalarini va o‘quv dasturlarini o‘zlashtirishda ta’lim oluvchilar auditoriya mashg‘ulotlari bilan bir qatorda o‘quv fanlari bo‘yicha mustaqil mashg‘ulotlarni bajarishi va mustaqil bilim olishi nazarda tutilishi lozim.

Bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarining ta’lim jarayoni o‘quv rejalariga muvofiq yakuniy davlat attestatsiyasi bilan tugallanadi.

O‘quv rejalar va o‘quv dasturlar kredit-modul tizimi asosida ishlab chiqiladi. Ayrim (zarur) hollarda o‘quv rejalar va o‘quv dasturlar reyting (baholash) tizimi asosida ishlab chiqilishi mumkin.

4.1.1. O‘quv fanlari bloklari mazmuniga qo‘yiladigan umumiyligi talablar: majburiy fanlar bloki fanlarni chuqur o‘zlashtirilishini taqozo etadi va ta’lim oluvchilarning intellektual salohiyatini boyitish, ta’lim yo‘nalishi va sohaga oid zarur fundamental bilimlar, kasbiy ko‘nikma, uquv va kompetensiyalarni shakllantirishi, bitiruvchiga tanlangan yo‘nalish va mutaxassislik bo‘yicha kasbiy faoliyat bilan shug‘ullanish hamda muayyan magistratura mutaxassisligi bo‘yicha kelgusida ta’limni davom ettirishga zamin yaratishi lozim. tanlov fanlari bloki bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim oluvchilar qo‘sishimcha chuqur nazariy va amaliy bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishini, innovatsion usullar va sohaning hududiy omillarini hisobga olgan holda kasbiy kompetensiyalari

kengayishini ta'minlashi, ta'lim trayektoriyalariga muvofiq kasbiy bilim va malakalarni o'zlashtirishga imkon yaratishi lozim.

4.1.2. Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari malaka amaliyotlariga qo'yiladigan umumiy talablar.

Ta'lim oluvchilar kasbiy ko'nikmalarni mukammal egallashi uchun o'quv rejalar va muayyan fanlarning o'quv dasturlarida o'quv (tanishuv), ishlab chiqarish (klinik, ijodiy va boshqa) va bitiruv oldi malaka amaliyotlari nazarda tutilishi shart.

Amaliyotlar bakalavriat ta'lim jarayonining majburiy qismi bo'lib, talabalarning kasbiy tayyorgarligi, amaliy ko'nikmalari va kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltiriladi.

Bakalavrular tayyorlashda quyidagi malaka amaliyotlari o'tkaziladi:

o'quv (tanishuv) amaliyoti — iqtisodiyot tarmoqlari, tegishli tashkilot, muassasa va korxonalar bilan tanishtirish, tabiiy-ilmiy va umumkasbiy fanlar bo'yicha nazariy bilimlarini mustahkamlashga qaratiladi; ishlab chiqarish amaliyoti — umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

bitiruv oldi amaliyoti — ishlab chiqarishda (tegishli soha korxona, tashkilot va muassasalarida) kasbiy ko'nikmalarni yanada mustahkamlash, kasbiy faoliyatga moslashish, bitiruv malakaviy ishni tayyorlash uchun ma'lumot to'plash va tizimlashtirishga qaratiladi;

pedagogik amaliyot — kasb ta'limi yo'nalishlari uchun qo'llaniladi va pedagogik mahoratini oshirishga qaratiladi.

Ta'lim yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq malaka amaliyotlarining boshqa turlari ham qo'llanilishi mumkin.

Har bir amaliyot turi o'quv reja va o'quv dasturiga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlari va real sektorning tegishli ilg'or korxona, tashkilot va muassasalari,

xorijiy va qo'shma korxonalar, ilmiy tashkilotlar, ta'lim, tibbiyat, madaniyat va boshqa muassasalarida, dala sharoitlarida, maxsus tajriba (poligon) obyektlarida va boshqalarda o'tkaziladi.

Amaliyotlarni tashkil qilish, o'tkazish va talabalarni baholash mezonlarini belgilash oliy ta'lim muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.